

# PSIXOLOGIYA

**Aymatov A.Q.**  
Falsafa fanlari doktori (Dsc)  
Samarqand davlat universiteti  
aminjonaymatov @ mail.com

**Turayeva Dildora Shuhratovna**  
Samarqand davlat tibbiyot universiteti  
o'qituvchisi  
dildoraturayeva865@ mail.com

## MULOQOT MADANIYATINING AXLOQIY-ESTETIK KATEGORIYA SIFATIDAGI TARIXIY NEGIZI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, muloqot madaniyatining rivojlanish tarixi, uning inson hayotida tutgan o'rni yoritilgan. Madaniyatli muloqot fenomeni tarixiy, etnoestetik, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-falsafiy, ontognoseologik asoslarga ega bo'lib, uning yuksalib borishi inson tafakkur tarzi taraqqiyoti bilan belgilanadi. Muloqot – odamlar o'rtasidagi hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o'zaro ta'sirning yagona yo'lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo'lgan aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishning murakkab, keng qamrovli jarayonidir.

**Kalit so'zlar:** muloqot, madaniyat, tarix, muloqot san'ati, axloq, ma'naviyat, ijtimoiy-falsafiy, etnoestetik.

## ИСТОРИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ КАК ЭТИКО- ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КАТЕГОРИИ

**Аннотация.** В статье рассматривается история развития культуры общения, её роль в жизни человека. Феномен цивилизованного общения имеет исторические, этноэстетические, духовно-просветительские, социально-философские, онтогностические основания, а его возникновение обусловлено развитием человеческого мышления. Общение – это сложный, многогранный процесс установления и развития контактов между людьми, обусловленный потребностью в совместной деятельности и заключающийся в обмене информацией, выработке уникального способа взаимодействия, восприятия и понимания другого человека.

**Ключевые слова:** общение, культура, история, искусство общения, мораль, духовность, социально-философское, этноэстетическое.

## THE HISTORICAL FOUNDATIONS OF COMMUNICATION CULTURE AS AN ETHICAL AND AESTHETIC CATEGORY

**Abstract.** This article covers the history of the development of the culture of communication, its role in human life. The phenomenon of civilized communication has historical, ethno-aesthetic, spiritual-enlightenment, socio-philosophical, ontognostic foundations, and its rise is determined by the development of human thinking. Communication is a complex, comprehensive process of establishing and developing contacts between people arising from the need for cooperative activity and consisting in the exchange of information, the development of a unique way of interaction, and the perception and understanding of another person.

**Keywords:** communication, culture, history, art of communication, ethics, spirituality, socio-philosophical, ethno-aesthetic

Insoniyatning bosib o'tgan har bir kuni ertaga tarixga aylanadi. Bu albatta, tabiiy hol. Zotan, u insonning umr yo'li, hayoti, quvonchi, tashvish-g'amlari hamda unga Olloh tomonidan ato etilgan har bir kunning ertaga takrorlanmasligi bilan bog'liqdir. Shuning uchun bo'lsa kerak,

inson hayoti davomida tinch-osoyishta, tashvishsiz hamda baxtli yashashga harakat qiladi. Inson baxtga erishishi uchun u ma'naviyatli va ma'rifatli bo'lishi zarur. Jamiyatda ma'naviy qashshoq, nodon kishilarning ko'payishi, ofatdir. Fan nodon va omi kishilar yo'lini yorituvchi, ularni to'g'rilik tomon boshlovchi yo'lchi yulduzdir, ilm-fan qanchalik tez rivojlansa, jamiyat a'zolarining orzu-umidlari shunchalik tez ro'yobga chiqadi, ma'naviy qashshoq odamlar soni kamayadi, ma'rifatli odamlar soni qancha ko'p bo'lsa, jamiyat hayoti shuncha tez insonparvarlashadi [7].

Odamlarning yashash sharoiti, boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, uni o'rab turgan ijtimoiy muhitning doimo o'zgarib borishi qonuniy bir jarayon hisoblanadi. Shunday ekan muloqot madaniyati muammosi va uni o'rganish barcha fanlar qatori falsafa fani uchun ham hamisha dolzarb muammolardan biri bo'lib qolaveradi. Muammolar qanchalik bir-biriga o'xshash bo'lmasin, ular har gal boshqa tarixiy sharoitda, o'zgargan ijtimoiy muhitda yashovchi, binobarin, o'zgacha tafakkur tarziga ega bo'lgan dunyoni boshqacha his etuvchi va tushunuvchi insonning muammolari bo'lib qolaveradi.

O'rta sarlar musulmon Sharqi faylasuflarning axloqiy-estetik ta'limotlarida, muloqot madaniyati haqidagi qarashlar ustuvorlik qilgan. Ular muloqot madaniyatiga nafaqat insonlarga manfaat keltiruvchi hodisa sifatida, balki go'zallining ob'ektlaridan biri ekanligi haqidagi qarashlarni ham ilgari surganlar. O'rta asr musulmon sharqining buyuk allomalaridan biri Mahmud Zamaxshariy odob-axloq inson barkamolligini ifodalovchi muhim ko'rsatkich ekanligini, bunda muloqot san'atining ahamiyati haqida gapirib, hamisha to'g'ri so'zlash kerakligini ta'kidlagan. Mahmud Zamaxshariy har doim so'zlashganda tilga ehtiyot bo'lish kerakligini uqtiradi. "Agar tilingning ortiqcha so'zlashiga ega bo'la olmasang, unda tizgining jilovini shaytonga topshirgan bo'lasan"<sup>1</sup>. Alloma har doim insonlar bilan so'zlashganda ehtiyotkor bo'lish kerakligini o'qtiradi.

Aytish joizki, muloqot madaniyatiga manfaatsiz, beg'araz yondashuvda muloqot ob'yektini o'zlashtirishdan ko'ra uning mohiyatini his qilish bosh maqsadlardan biridir. Muloqot san'ati davlatni boshqarish, xalqni hokimiyat atrofida birlashtirish va muayyan maqsadlar sari yo'naltirish, turli toifadagi odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish kabi ishlarning barini amalga oshirishning bosh vositasidir. Davlat va jamiyat boshqaruvini muloqot madaniyatisiz tasavvur etib bo'lmaydi. "Nutq qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi, odamlarni boshqarish uchun esa ayni shular kerak", degan edi g'arb mutaffakiri R.Emirson [8]. Bugungi kunda har qanday rahbar ishining samarasi uning muloqot mahoratiga bog'liqdir. Shu ma'noda muloqot madaniyati va notiqlik san'ati tarixiga bir nazar tashlash, notiqlikning turli o'lka va davrlarning ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni bilan oz bo'lsada tanishish foydadan holi bo'lmaydi.

Muloqot madaniyati haqidagi ta'limot va uslubiyat haqidagi ilm o'zining uzoq o'tmishiga ega. Arastu birinchi bo'lib, san'at, madaniyat tizimining paydo bo'lishida asos bo'lib xizmat qiladigan "muloqot", "muomala" iborasini iste'molga kiritdi. U ta'limot sifatida antik davrlarda qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo'lsa ham, unga qadar Misrda, Ossuriyada, Vavilon va Hindiston mamalakatlari paydo bo'lganligi muloqot san'ati tajribasidan ma'lum. Antik davrlarda shaxslararo aloqalar umumfalsafiy tizim sifatida mutaffakkirlarning qarashlari bilan qo'shib ketgan edi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, muloqot san'atiga ehtiyojning paydo bo'lishini insoniyat tarixidagi ilk davlatchilikning shakllanishi davri bilan bog'lash mumkin. Bizga ma'lumki, u davrlarda davlat arboblarning obro'-e'tibori va yuqori lavozimlarga ko'tarilishi ularning muloqot mahoratiga, ya'ni notiqlik san'atiga bog'liq bo'lgan. Notiqlik san'ati sarkardalik mahorati bilan baravar darajada ulug'langan. Shuning uchun ham ikki mahoratni puxta egallagan arboblarga yuqori lavozimlarga saylangan. Grek notig'i Demosfen va Rim notig'i Sitseronlarning hayoti bunga yorqin misol bo'la oladi. Ular kishilik jamiyatida ritorika va notiqlik san'atining o'ziga xos maktabini shakllantirdilar va yaratdilar.

Xususan Demokrit o'ziga xos bo'lgan muloqot san'atiga chiroyli so'zlashish, yaxshi xulqqa ega bo'lish, yaxshi hatti-harakatni ifodalagan hayot san'ati sifatida qaragan. Demokrit:

“Yaxshi maslahatchi har qanday boylikdan afzal. Haqiqat chuqur quduqning tubiga yashiringan. Ko‘p bilishga emas, ko‘p fikrlilikka intilmoq lozim”[9] - deydi. Demokritning: “So‘z amalning soyasi” aforizmi bugungi kunda ham o‘z mavqeyini yuqotgani yuq. Shuningdek, yunon faylasuflari hisoblangan Suqrot va Aflotun falsafani teng huquqli muloqot madaniyatini, o‘zaro suhbat, o‘zini va boshqalarni tushunishni ifodalagan suhbat, haqiqatni anglash sifatida tushunishgan. Suqrot jamoatchilikning murosaga kelishi va ishonchini shakllantirishning eng yaxshi usuli deb yuzma - yuz muloqot qilishni aytib o‘tgan. U o‘zining falsafiy qarashlarini monolog shaklida emas dialog shaklida olib borgan. U bu dialoglar yordamida suhbatdosh bilan muloqot qilish ortidan kelib chiqadigan bahs-munozara orqali haqiqatni yuzaga chiqarishga intilgan. Suqrot o‘zining falsafiy mushohadalarida ichki nidosi bilan muloqot qilish haqida gapiradi. U buni “iblis” deb ataydi. Bunda Suqrot o‘z vijdoniga qarshi hech qachon harakat qilmaganini ta’kidlaydi. Insonlarni ham o‘zligini anglash yo‘lida ba’zan o‘z-o‘zi bilan muloqot qilish muhimligini bildirib o‘tgan. U har doim muammoning yechimi baxs-munozara orqali yechiladi degan fikrda bo‘lgan.

Suqrotning shogirdi bo‘lgan Aflotun o‘zining falsafiy qarashlarida muloqot madaniyatining muhimligini alohida bildirib, muloqot yordamida g‘oyalarni og‘zaki tarzda yetkazmay, balki yozma shaklda yetkazish muhimligini aytib o‘tgan. U hayoti davomida 30 ga yaqin katta va kichik dialoglar yozgan. Aflotun falsafiy g‘oyalarni anglash va shundayligicha hazm qilish inson uchun qiyin ekanligini ta’kidlaydi. Insondan buning uchin kuch, iroda, sabr, g‘ayrat va vaqt talab etiladi. Bu yo‘lda eng muhim jihat haqiqat izlovchilar bilan suhbatga kirishishdir. Aflotun “suhbat” va “munozaralar”ni insonga haqiqatni bildiruvchi vosita sifatida ko‘radi. Aflotun “Dono nimanidir aytish uchun gapiradi, nodon nimanidir deyishi kerakligi uchun vaysaydi”[10] - degan edi. Bu fikrlarda juda katta falsafiy ma’no mujassamdir. Zero nimanidir gapirish kerakligi uchungina emas, balki, gapirgan gaplarning naflilik, yoxud mazmundorlik mohiyatidan kelib chiqib so‘zlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yana bir yunon faylasuflaridan biri Gorgiy ham muloqot madaniyati haqida qimmatli mushohadalar yuritgan. U o‘z davrining mashxur notig‘i hisoblangan. Gorgiyning “Yelena” nutqida so‘z san‘atiga shunday ta’rif bergan: “So‘z - jismi kichik va ko‘z ilg‘amas, ammo buyuk hukmdor; u ma’vudvash ishlarga qodir, zero, u ham qurquvni chekintirishi, ham dardni yumshatishi, ham xushkayfiyat berishi, ham hamdardlikni oshirishi mumkin”[11] Gorgiy so‘zning naqadar qudratli kuch ekanligini o‘z asarlarida batafsil keltirib o‘tgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, muloqot madaniyati boy tarixiy taraqqiyotga egadir. Muloqot madaniyati kishilarda taassurot qoldirishning eng muhim belgilaridan biridir. Insoniyat odobining va odamiylik asosining qadrlil ustunlaridan biri bu - muloqot madaniyatidir. Muloqot madaniyati eng qadimgi davrlardan boshlab bugungi kungacha jamiyat hayotida muhim hisoblanib kelingan. Vaholanki, oqilona, axloqiy-estetik asoslarga ega muloqotning kuchi har bir taraqqiyot davrining ustuni bo‘la oladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiev N.E. Texnika va information texnologiyalar falsafasi. – Samarqand, SamDU, 2021. – 216 b.
2. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. – T.: Yangi asr avlodi, 1998. – 116 b.
3. Юлдашев Р. Таълим фалсафаси таълим жараёнини ривожлантиришнинг назарий-концептуал асоси. –Т.: 2020. – 172 б.
4. Эргашева М.Х. Таълим тараққиёти: синергетик таҳлил. Монография. – Самарқанд: СамЧТИ, 2022. – 190 б.
5. Эргашева М. Авестонинг синергетик таҳлили. Монография. – Самарқанд: “СамДУ”, 2016. –159 б.
6. Эргашева М. Мафкуравий жараёнларнинг тизимли таҳлили. Ўқув қўлланма. – Самарқанд.: СамДУ, 2021. – 244 б.
7. Furqat.Tanlangan asarlar. Toshkent, 1975. –B. 184-185.

8. Эмерсон Р. Сверхдуша // Вестник теософии : журнал. — 2015. — № 13.
9. [Чанышев А.Н.](#) История философии Древнего мира: Учебное пособие для вузов. — М.: [Академический проект](#), 2011.
10. Афлотун. Қонунлар. Тошкент “Янги аср авлоди .2022. Б-345
11. Миллер Т. А. От поэзии к прозе (Риторическая проза Горгия и Исократы) // Античная поэтика. Риторическая теория и литературная практика. — М.: Наука, 1991. — С. 60—105.